INDONEZIYA RESPUBLIKASIDA DIPLOMATIK PROTOKOL VA ETIKET

Shokirova Muslima Behzod qizi

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi

"Xalqaro munosabatlar" yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar:O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi "Xalqaro munosabatlar va ijtimoiy fanlar" kafedrasi dotsenti ***J.Sobirov***

Annotatsiya: *Ushbu maqola Indoneziya Respublikasida amal qiladigan diplomatik protokol va etiket qoidalarini madaniy-tarixiy, diniy va ijtimoiy omillar kontekstida tahlil qiladi. Xalqaro munosabatlar amaliyotida muhim o'rin tutuvchi Indoneziya diplomatik madaniyati ierarxiya, kamtarlik, mojarolardan qochish va o'zaro hurmat kabi asosiy tamoyillarga tayanadi. Maqolada salomlashish tartibi va unvonlardan foydalanish, tana harakatlari va imo-ishoralar odobi, kiyinish qoidalari, ovqatlanish va banket etiketi hamda rasmiy uchrashuvlardagi o'tirish tartibi ilmiy manbalarga tayanib ko'rib chiqiladi. Tadqiqot shuningdek CTI-CFF xalqaro tashkilotining diplomatik protokol* ***qo'llanmasi (2026) va Indoneziya ish muhitiga oid qiyosiy materiallardan*** *foydalanadi. Natijalar Indoneziya diplomatik madaniyatining o'ziga xos xususiyatlari xalqaro hamkorlikni samarali rivojlantirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar: *diplomatik protokol, Indoneziya, xalqaro etiket, madaniyatlararo muloqot, diplomatik muomala madaniyati, xalqaro munosabatlar.*

Kirish. Zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida diplomatik protokol va etiket qoidalari davlatlar o'rtasidagi muloqotning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Har bir davlat o'zining tarixiy an'analari, diniy qadriyatlari, milliy mentaliteti hamda ijtimoiy tuzilmasiga asoslangan holda diplomatik muomala madaniyatini shakllantiradi. Shu sababli diplomatik protokol qoidalari turli mamlakatlarda

o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi va ularni chuqur o'rganish xalqaro muloqotning samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega (CTI-CFF Regional Secretariat, 2019).

Janubi-Sharqiy Osiyoda joylashgan Indoneziya Respublikasi 270 milliondan ortiq aholisi bilan dunyodagi eng yirik musulmon davlati va to'rtinchi eng ko'p aholiga ega mamlakat hisoblanadi. Ko'p millatli, ko'p madaniyatli va ko'p diniy jamiyatga ega bo'lgan bu davlatda ijtimoiy hayotning barcha sohalarida — shu jumladan, diplomatik aloqalarda ham — diniy va madaniy qadriyatlar muhim o'rin tutadi. Bundan tashqari, Indoneziya Janubi-Sharqiy Osiyo xalqlari uyushmasi (ASEAN) va G20 kabi nufuzli xalqaro tashkilotlarning faol a'zosi sifatida global diplomatiya maydonchasida alohida mavqega ega.

Mazkur maqolaning maqsadi Indoneziyada amal qiladigan diplomatik protokol qoidalarini madaniy-tarixiy kontekstda tahlil qilish, ularning xalqaro amaliyot bilan munosabatini o'rganish va xalqaro munosabatlar sohasidagi tadqiqotchilar hamda amaliyotchilar uchun ilmiy asos yaratishdan iborat. Tadqiqot uchta asosiy manba — o'zbek tilidagi birlamchi ma'lumotnoma, CTI-CFF xalqaro tashkilotining rasmiy diplomatik protokol qo'llanmasi (2019) va Indoneziya ish muhitidagi muloqot xususiyatlariga bag'ishlangan qiyosiy adabiyotlar — asosida amalga oshirilgan.

Indoneziya diplomatik madaniyatining shakllanishi mamlakatning tarixiy rivojlanishi, islom dinining ta'siri va mahalliy an'analar bilan chambarchas bog'liqdir. Ijtimoiy tartib, katta-kichikka hurmat hamda murosaga asoslangan muomala uslubi Indoneziya jamiyatida ustuvor qadriyatlar sifatida qaraladi. Ijtimoiy ierarxiya muhim ahamiyat kasb etadi: lavozim, yosh va jamiyatdagi mavqe muloqot uslubiga bevosita ta'sir qiladi. Rasmiy uchrashuvlarda yoki diplomatik tadbirlarda eng yuqori lavozimdagi shaxsga birinchi bo'lib murojaat qilish odatiy hisoblanadi. Bu xususiyat CTI-CFF qo'llanmasida ham o'z aksini topgan: tashkilotning yig'ilishlarida eng muhim mehmon mezbonning o'ng

tomoniga o'tiriladi, boshqa mehmonlar esa ularning lavozimiga qarab joylashtiriladi (CTI-CFF Regional Secretariat, 2019).

Mojarolardan qochish (conflict avoidance) madaniyati Indoneziya diplomatik amaliyotida yaqqol namoyon bo'ladi. Indoneziyaliklar keskin yoki to'g'ridan-to'g'ri rad javobini berish o'rniga muloyim va bilvosita uslubdan foydalanishni afzal ko'radilar (Delovoe obshhenie, 2023). Qatnashchilardan biri o'z pozitsiyasini to'g'ridan-to'g'ri rad etish o'rniga "buning ustida o'ylab ko'ramiz" yoki "bu masala bo'yicha izlanib ko'ramiz" kabi iboralar ishlatishi odatiy holdir. Bu yondashuv, bir tomondan, ijtimoiy uyg'unlikni saqlashga, ikkinchi tomondan esa muloqotda noaniqlik paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin. "Yuzni saqlash" (face-saving) tamoyili Indoneziya muloqotida alohida muhim o'rin egallaydi. Indoneziyaliklar kamdan-kam hollarda o'z bilmasligini tan oladilar, chunki ular uchun har qanday vaziyatda ham hurmat-e'tiborini saqlab qolish muhimdir (Delovoe obshhenie, 2023). Bu madaniy xususiyatni bilmagan diplomat muzokaralarda noto'g'ri xulosalar chiqarishi va samarali hamkorlikka erishishda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Shuning uchun Indoneziya diplomatik etiketini chuqur o'rganish xalqaro muloqotda muvaffaqiyatning zarur shartidir.

Indoneziyada salomlashish odobi diplomatik muomalada juda muhim ahamiyatga ega. Odatda uchrashuv paytida yumshoq qo'l siqish va boshni biroz egish orqali salomlashiladi. Juda kuchli qo'l siqish hurmatsizlik yoki agressivlik sifatida talqin qilinishi mumkin. Ko'pincha salomlashgandan so'ng inson o'ng qo'lini ko'kragiga qo'yadi — bu hurmat va samimiylik belgisi hisoblanadi. Xalqaro diplomatik amaliyotda esa CTI-CFF qo'llanmasi ta'kidlaganidek, ba'zi madaniyatlarda qo'l siqish bilan salomlashish noqulay sezilishi mumkin va bunga hurmat bilan munosabatda bo'lish zarur (CTI-CFF Regional Secretariat, 2019).

Rasmiy murojaat qilishda maxsus unvonlardan foydalanish muhim hisoblanadi. Erkaklar uchun "Bapak" (qisqacha "Pak") — "janob" ma'nosida, ayollar uchun esa "Ibu" (qisqacha "Bu") — "xonim" ma'nosida ishlatiladi. Masalan, "Pak Agus"

yoki "Ibu Siti" kabi murojaat shakllari hurmat ifodasi sifatida qabul qilinadi. Xalqaro diplomatik protokolda esa elchilar va yuqori martabali vakillarga nisbatan "His/Her Excellency" unvoni qo'llaniladi (CTI-CFF Regional Secretariat, 2019). To'g'ri unvonni ishlatish diplomatik muloqotning eng muhim kodlaridan biri hisoblanadi.

Indoneziya madaniyatida qo'l harakatlari muhim diplomatik ahamiyatga ega. Chap qo'l an'anaviy ravishda nopok hisoblanadi — u gigiyena bilan bog'liq vazifalarda ishlatiladi deb qaraladi. Shu sababli qo'l siqish, sovg'a uzatish yoki biror narsani qabul qilishda doimo o'ng qo'ldan foydalanish talab etiladi. Agar biror narsa uzatilayotgan bo'lsa, o'ng qo'lni chap qo'l bilan qo'llab-quvvatlab turish yanada hurmatli imo-ishora sifatida qaraladi. Diplomatik uchrashuvlarda vizitka yoki hujjatlarni ikki qo'l bilan uzatish ham hurmat belgisi hisoblanadi. Ba'zi tana harakatlari esa nojoiz hisoblanadi: ko'rsatkich barmoq bilan odamni ko'rsatish, birovning boshiga tegish, qo'llarni belga qo'yib turish va oyoq tagini ko'rsatish hurmatsizlik belgisi sifatida talqin qilinadi. Indoneziya madaniyatida bosh muqaddas deb hisoblanadi, shuning uchun boshqa odamning boshiga tegish qat'iyan nojoizdir. Biror yo'nalishni ko'rsatishda ko'rsatkich barmoq o'rniga bosh barmoq yoki ochiq kaft ishlatiladi. Vizitka almashishda ham o'ziga xos qoida mavjud: kartochkani ikki qo'lda ushlab taqdim etish va qabul qilishdan oldin diqqat bilan o'qib chiqish odobning bir ko'rinishi hisoblanadi (CTI-CFF Regional Secretariat, 2019).

Diplomatik uchrashuvlar va rasmiy tadbirlarda kiyinish madaniyati muhim etiket qoidalaridan biri hisoblanadi. Indoneziyada tashqi ko'rinish insonning hurmat darajasi, jiddiyligi va rasmiy tadbirga bo'lgan munosabatini ifodalaydi. Indoneziya iqlimi issiq bo'lishiga qaramasdan, ish uchrashuvlarida rasmiy kiyinish majburiy hisoblanadi (Delovoe obshhenie, 2023).

Erkaklar uchun diplomatik yoki rasmiy uchrashuvlarda klassik kostyum va galstuk tavsiya etiladi. Qora, kulrang yoki to'q ko'k ranglar rasmiylik va hurmat

belgisi sifatida qabul qilinadi. Ayrim rasmiy tadbirlarda milliy kiyim — batik ko'ylak — kiyish Indoneziya madaniyatiga hurmat ko'rsatish belgisi sifatida alohida qadrlanadi. Batik maxsus naqshli matodan tikilgan ko'ylak bo'lib, UNESCO tomonidan madaniy meros sifatida tan olingan va davlat tadbirlarida keng qo'llaniladi.

Ayollar uchun kiyinish qoidalari kamtarlik va rasmiylik tamoyillariga asoslanadi. Kiyimlar juda ochiq bo'lmasligi va tanani ortiqcha ochib qo'ymasligi muhim hisoblanadi; ayollar uchun tizzadan past yubka tavsiya etiladi (Delovoe obshhenie, 2023). CTI-CFF qo'llanmasiga ko'ra, ministerial uchrashuvlar uchun "Lounge Suit/National Dress", gala dinner uchun esa "Special Attire/Lounge Suit/National Dress" kiyim kodi tavsiya etiladi (CTI-CFF Regional Secretariat, 2019). Kiyimning toza va dazmollangan bo'lishi ham muhim talablardan biri hisoblanadi.

Rasmiy ziyofatlar Indoneziya diplomatik amaliyotida alohida o'rin tutadi. Mehmonlar ovqatni mezbon yoki eng yuqori lavozimdagi shaxs boshlaguncha kutishlari kerak — bu hurmat belgisi hisoblanadi. Ba'zi hollarda mezbon qisqa tabrik yoki nutq aytgandan keyin ovqat boshlanadi. Ovqatlanishda o'ng qo'ldan foydalanish muhim madaniy qoida hisoblanadi: qoshiq (sendok) odatda o'ng qo'lda ushlanadi, vilka esa chap qo'lda bo'lib, ovqatni qoshiq ustiga surish uchun ishlatiladi.

Umumiy idishdan ovqat olishda bir necha qoidaga rioya qilish talab etiladi: taomni ehtiyotkorlik bilan olish, umumiy idishga ishlatilgan qoshiqni qayta solmaslik, boshqa mehmonlarga ham navbat qoldirish. Ovqatlanish jarayonida baland ovozda gapirmaslik, og'iz to'la holda gapirmaslik, shoshilmay ovqatlanish va stol ustida odob bilan o'tirish muhim qoidalar hisoblanadi. Ovqat tugagach, qoshiq va vilkani likopchaning ichiga parallel holda qo'yish ovqat tugaganini bildiradi.

CTI-CFF tashkilotining diplomatik banket qoidalariga ko'ra, gala dinner tadbirlarida stol atrofida o'tirish tartibi diplomatik ierarxiyaga qat'iy rioya etgan holda belgilanadi. Eng yuqori lavozimdagi mehmon mezbonning o'ng tomoniga o'tiriladi, boshqa mehmonlar esa ularning lavozimiga qarab joylashtiriladi. Erkak va ayollar ko'pincha navbat bilan o'tiriladi. Oldindan o'tirish kartalari tayyorlanishi diplomatik hurmatni saqlash va tadbirni tartibli o'tkazish uchun zarur amaliyot hisoblanadi (CTI-CFF Regional Secretariat, 2019). Diplomatik banketda nutq so'zlash va toast ko'tarish ham davlatlar o'rtasidagi do'stlik va hamkorlikning ramziy ko'rinishi sifatida ahamiyat kasb etadi.

Indoneziyada muzokaralar uslubi sabr-toqat, muloyimlik va bilvosita muloqotga asoslanadi. Qarorlar jamoaviy tarzda qabul qilinadi va individualizm qo'llab-quvvatlanmaydi; bosim yoki agressiya manfiy munosabat uyg'otadi (Delovoe obshhenie, 2023). Indoneziyaliklar avval boshqa tomonni gapirtirib olishni ma'qul ko'radi, so'ngra o'z pozitsiyalarini raqibiga maqbul bo'lishi mumkin bo'lgan tarzda muloyimlik bilan bayon etadi va shundan so'ng iltimos bilan murojaat qiladi. Indoneziyada qarorlar bir necha uzoq suhbatdan so'ng qabul qilinishi odatiy holdir — birinchi uchrashuvda yakun chiqarilishini kutish to'g'ri emas. Vaqtga munosabat ham o'ziga xos: indoneziyaliklar ba'zan kech qolishlari mumkin, chunki ular vaqtga Yevropa madaniyatidagi kabi qat'iy qaramaydilar. Shu bilan birga, xorijiy sheriklar uchun o'z vaqtida kelish tavsiya etiladi (Delovoe obshhenie, 2023).

Indoneziya sherigining ishonchini qozonish uchun ularga hurmatni ko'rsatish va o'zaro yoqimli munosabat o'rnatish hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qiladi. Indoneziyaliklar o'zlariga ko'proq hurmat ko'rsatadigan sherikdan mahsulot yoki xizmat sotib olishni afzal ko'radilar. Korporativ diplomatiya sohasida ham shaxsiy munosabatlar qurish (relationship building) har qanday rasmiy bitishuvdan muhimroq deb qaraladi.

Indoneziya diplomatik protokoli va etiket qoidalari mamlakatning boy tarixiy tajribasi, islom diniy qadriyatlari hamda milliy an'analari asosida shakllangan yaxlit ijtimoiy-me'yoriy tizim hisoblanadi. Mazkur tadqiqot shuni ko'rsatdiki, ushbu tizimni chuqur o'rganish va unga rioya qilish xalqaro munosabatlarda muvaffaqiyatli hamkorlik o'rnatish uchun zarur shartdir.

Tadqiqot davomida quyidagi asosiy xulosalarga kelindi: birinchidan, ierarxiya va kattalar obro'siga hurmat Indoneziya diplomatik amaliyotining poydevori hisoblanadi — bu tamoyil salomlashish tartibidan tortib banketdagi o'tirish tartibigacha barcha protokol qoidalarida namoyon bo'ladi. Ikkinchidan, mojarolardan qochish va "yuzni saqlash" tamoyillari muzokaralar dinamikasiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi va ularni tushunmaslik muloqotda noto'g'ri talqinlarga olib kelishi mumkin. Uchinchidan, o'ng qo'l qoidasi, murojaat shakllari va kiyinish qoidalari kabi praktik protokol me'yorlari madaniy qadriyatlarning bevosita ifodasidir. To'rtinchidan, CTI-CFF kabi xalqaro tashkilotlarning rasmiy qo'llanmalari an'anaviy mahalliy me'yorlarni xalqaro amaliyotga tatbiq etishda samarali ko'prik vazifasini o'taydi.

Kelajakda ushbu sohada qiyosiy tadqiqotlar olib borish, xususan Indoneziya diplomatik protokolini boshqa Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarining amaliyoti bilan taqqoslash maqsadga muvofiqdir. Raqamli diplomatiya va virtual uchrashuvlar davrida an'anaviy protokol qoidalarining o'zgarish dinamikasini o'rganish ham dolzarb ilmiy masala bo'lib qolmoqda. Mazkur maqolaning natijalari xalqaro munosabatlar, diplomatiya va madaniyatlararo muloqot sohasida ilmiy-tadqiqot va amaliy faoliyat olib borayotganlarga foydali bo'ladi deb umid qilamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. CTI-CFF Regional Secretariat. (2019). *Guide to Diplomatic Protocol: Coral Triangle Initiative on Coral Reefs, Fisheries and Food Security (CTI-CFF).* Manado: CTI-CFF RS. ISBN: 978-602-73937-3-8.

2. Delovoe obshhenie. (2023). *Indoneziyada ishbilarmonlik muloqotining xususiyatlari.* [Biznes etiket to‘plami].
3. Hofstede, G., Hofstede, G. J., & Minkov, M. (2010). *Cultures and Organizations: Software of the Mind* (3rd ed.). McGraw-Hill.
4. Mulder, N. (2005). *Inside Southeast Asia: Religion, Everyday Life, Cultural Change.* Amsterdam: Pepin Press.